

**Jamg'arma ishonch telefoniga mart oyi mobaynida bo'lgan
murojaatlar yuzasidan
MA'LUMOT**

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi ishonch telefoni **(99 353 93 54)**ga mart oyida **1072 ta** fuqarolar murojaat qildi. Murojaatlarning asosiy qismi imtiyozli toifaga ega bo'lgan fuqarolarga Sog'liqni saqlash vazirligidan kelgan **"sms"** xabarnoma yuzasidan hamda fuqarolarning **og'zaki murojaatlari** bo'ldi.

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi ishonch telefoniga mart oyi davomida imtiyozga ega fuqarolardan **e'tirozli 28(2,6%)ta og'zaki murojaatlar** kelib tushdi.

Shulardan:

Respublika tasarrufidagi shifoxonalarda imtiyozli yo'llanma bilan davolanayotgan **16(57,1%) nafar bemorlardan (Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiy rehabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazidan 3 ta, Toshkent tibbiyot akademiyasi ko'p tarmoqli klinikasi 5 ta), Respublika tasarrufidagi shifoxonalar filiallari va viloyat markazida shifoxonalarda** imtiyozli yo'llanma bilan davolanayotgan **8(28,6%) nafar bemorlardan e'tirozli og'zaki murojaatlar bo'lgan.**

Boshqa turli xil masalalar yuzasidan 4(14,3%) nafar fuqarolar jamg'arma ishonch telefoniga **og'zaki murojaatlar qilgan.**

Barcha **og'zaki murojaatlar** yuzasidan shifoxona mas'ullariga hamda hududiy bosh mutaxassislarga telefon orqali ma'lumotlari berildi, tibbiyot muassasa mas'ullariga bemorlar e'tirozi o'rnatilishi yuzasidan tushuntirildi, **og'zaki murojaatlar ijobiy hal qilindi.**

**Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi
Matbuot xizmati.**